



**JIZZAX VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR

*2025- yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va
dehqon xo‘jaliklarisiz)*

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari **16 921** tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **13 838** ta.


Shuningdek, ushbu davrga **32 098** ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,9** foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1- fevral holatiga)

Ro'yxatdan o'tgan
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan
(birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025- yil yanvar oyida)


2025- yil yanvar oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 249 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: G'allaorol tumani (23 taga), Sharof Rashidov tumani (22 taga) va Arnasoy tumanida (14 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni qurilish – 7 taga, qishloq, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 6 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 16 921 tani tashkil etdi, ulardan 13 838 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 27,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 16,6 foiz, sanoat – 12,3 foiz, qurilish – 6,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahrida – 27,1 foiz, tumanlardan Sharof Rashidov – 13,7 foiz, G'allaorol – 9,4 foiz, Zomin – 8,6 foiz va Baxmalda – 7,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 235 ta bo'lib, shundan:

- mikrofimalar va kichik korxonalar 234 ta;
- yirik korxonalar 1 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- fevral holatiga 13 919 tani tashkil etdi, ulardan 13 838 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,9 foiz, sanoat – 14,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,9 foiz, qurilish – 7,8 foiz, tashish va saqlash – 2,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,7 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,4 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar oyida qurilish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 11 tadan 18 taga (o'sish 7 taga), tashish va saqlashda – 3 tadan 5 taga (o'sish 2 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (27,9 foiz), Sharof Rashidov (14,3 foiz), G'allaorol (9,6 foiz), Zomin (8,4 foiz) va Forish (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Forish (18,1 foiz), Sh.Rashidov (12,9 foiz) va G‘allaorol (10,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik
ovchilik va bu sohalarda
xizmat ko‘rsatish

2 652



147

Baliq ovlash va
akvakultura

O‘rmonchilik va
yog‘och tayorlash

13



(2025- yil 1- fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 12,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	616
Sh.Rashidov t.	353
G'allaorol t.	222
Zomin t.	203
Baxmal t.	116
Forish t.	111
Paxtakor t.	99
Zarbdor t.	94
Do'stlik t.	72
Arnasoy t.	61
Mirzacho'l t.	55
Zafarobod t.	46
Yangiobod t.	35

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 51,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 24,2 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 24,3 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Bino va inshootlar qurish

561

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

263

Fuqarolik obyektlarini qurish

265

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 4 669 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,0 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 1 097 taga yetib, ularning 1 093 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,8 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-vqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 91,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	363
Sh.Rashidov t.	211
G'allaorol t.	89
Zomin t.	88
Baxmal t.	69
Paxtakor t.	58
Mirzacho'l t.	44
Zarbdor t.	43
Do'stlik t.	38
Forish t.	37
Arnasoy t.	23
Yangiobod t.	20
Zafarobod t.	14

Yillar kesimida soni (birlikda)



1 000

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

97

(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 66,8 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 21,6 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 11,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	97
Sh.Rashidov t.	17
Paxtakor t.	16
Arnasoy t.	15
G'allaorol t.	13
Baxmal t.	12
Zomin t.	10
Forish t.	6
Zarbdor t.	6
Zafarobod t.	5
Do'stlik t.	4
Mirzacho'l t.	4
Yangiobod t.	3

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	96	43	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	19	43	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	5	2	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 314 ta yoki 1,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,4 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;





yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 4,5 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 3,2 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	155
G'allaorol t.	34
Zomin t.	31
Sh.Rashidov t.	18
Baxmal t.	14
Do'stlik t.	12
Paxtakor t.	11
Forish t.	10
Zarbdor t.	8
Mirzacho'l t.	7
Yangiobod t.	6
Arnasoy t.	4
Zafarobod t.	4

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Jizzax sh.	133
Sh.Rashidov t.	70
Zomin t.	23
Paxtakor t.	21
G'allaorol t.	21
Baxmal t.	18
Zarbdor t.	16
Arnasoy t.	12
Do'stlik t.	11
Mirzacho'l t.	10
Forish t.	5
Zafarobod t.	4
Yangiobod t.	2

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 72,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 25,1 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



8

Pochta va kuryerlik



88

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



279

Quruqlikdagi va quvur transporti



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

10 637

mas’uliyati cheklangan jamiyat

76,4

1 935

xususiy korxonalar

13,9

1 159

oilaviy korxonalar

8,3

15

aksiyadorlik jamiyati

0,1

173

boshqalar

1,2

(2025- yil yanvar oyida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	42
Sh.Rashidov t.	28
G'allaorol t.	23
Arnasoy t.	21
Baxmal t.	15
Forish t.	13
Paxtakor t.	12

Zomin t.	10
Zarbdor t.	9
Mirzacho'l t.	9
Do'stlik t.	8
Yangiobod t.	7
Zafarobod t.	6

(2025- yil fevral holatiga)


Amaldagi 13 919 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 10 637 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 20,4 foiz, sanoat – 13,9 foiz, qurilish – 8,9 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	3 272
Sh.Rashidov t.	1 629
Zomin t.	837
Baxmal t.	827
G'allaorol t.	821
Forish t.	660
Arnasoy t.	546


Zarbdor t.	504
Paxtakor t.	377
Do'stlik t.	355
Mirzacho'l t.	351
Zafarobod t.	247
Yangiobod t.	211

(2025- yil yanvar oyida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	8	Zomin t.	1
Jizzax sh.	2	Mirzacho'l t.	1
Sh.Rashidov t.	1	Forish t.	1

(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan G'allaorol – 361 ta, Forish – 296 ta, Jizzax shahrida – 288 ta, Zomin – 192 ta va Paxtakorda – 147 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 764 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 409 ta, sanoatda – 206 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 180 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	361
Forish t.	296
Jizzax sh.	288
Zomin t.	192
Paxtakor t.	147
Sh.Rashidov t.	110
Baxmal t.	93

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Arnasoy t.	87
Mirzacho'l t.	86
Zafarobod t.	84
Yangiobod t.	80
Zarbdor t.	73
Do'stlik t.	38

(2025- yil yanvar oyida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	4
Sh.Rashidov t.	4
Baxmal t.	1


G'allaorol t.	1
Mirzacho'l t.	6
Paxtakor t.	1

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra 1 159 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 32,5 foiz, savdo – 32,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Jizzax shahri – 25,1 foiz, Sharof Rashidov – 19,7 foiz, G'allaorol – 11,5 foiz va Zomin tumanlarida – 10,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	291
Sh.Rashidov t.	228
G'allaorol t.	133
Zomin t.	125
Paxtakor t.	118
Zarbdor t.	66
Baxmal t.	44

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Do'stlik t.	43
Zafarobod t.	39
Forish t.	24
Yangiobod t.	17
Mirzacho'l t.	16
Arnasoy t.	15

(2025- yil yanvar oyida)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi



Ushbu bo'limning eng muhim yo'nalishlari yog'och tayyorlash va o'rmon bo'lmagan o'rmon mahsulotlarini yig'ish bo'lib, ularning ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash



Baliq ovlash va akvakultura


Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo'limi faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, ularning fermer xo'jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.



Yillar kesimida soni
(birlikda)

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Mirzacho'l t.	2
Zarbdor t.	1



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Jizzax viloyatida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan.


Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Baxmal (14,8 foiz), G'allaorol (14,8 foiz) va Zomin (13,2 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

G'allaorol t.	1 110
Baxmal t.	1 106
Zomin t.	986
Sh.Rashidov t.	928
Zarbdor t.	716
Arnasoy t.	517
Mirzacho'l t.	447
Zafarobod t.	442
Do'stlik t.	408
Forish t.	321
Paxtakor t.	313
Yangiobod t.	154
Jizzax sh.	34



7 400

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash
va akvakultura

1

81

O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(2025- yil yanvar oyida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2025- yil yanvar oyida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100 % foiz teng bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Jizzax sh.	1	G'allaorol t.	1
Sh.Rashidov t.	1	Zomin t.	1

(2025- yil 1- fevral holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 203 ta korxonalardan 89 tasi qo'shma korxonalar va 114 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jizzax sh.	79
Forish t.	22
Sh.Rashidov t.	21
Zomin t.	18
G'allaorol t.	14
Arnasoy t.	13
Paxtakor t.	9


Zafarobod t.	7
Baxmal t.	5
Do'stlik t.	5
Yangiobod t.	4
Zarbdor t.	3
Mirzacho'l t.	3

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 0,5 foizga kamaydi.

Yetakchi o'rinni 76 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 32,3 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 21,4 foiz), AQSh (ulushi 2,5 foiz) va Buyuk Britaniya (ulushi 2,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2025- yil 1- fevral holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Jizzax shahriga - 38,9 foiz, tumanlar orasida esa Forish – 10,8 foiz, Sharof Rashidov – 10,3 foiz va Zomina – 8,9 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- fevral holatiga)




So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.


Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- fevral holatiga)

qo'shma korxonalar



xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ulami identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi
STATISTIKA AGENTLIGI

Orqali qutub

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Agentshirkorlar to'g'risida ma'lumot berish

2 kv 2/1

Rasmdagi kodni kiriting

Olish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
2020 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

